Yuldashova Yoqutoy Murodjon qizi, Yuldashev Abduhakim Abdulkarimovich	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA KADRLAR SALOHİYATINI SAQLAB QOLISH VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	803
Bekchanov Ruslan Ambiyatovich	
PARALLEL KORPUS ASOSIDA INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QISHLOQ XO'JALIK ATAMALARINING EKVIVALENTLIK XUSUSIYATLARI.....	807
Yulduz Xalilova Nasriddinovna	
KOLBASA VA GO'SHT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISHDA CHIQUINDISIZ ISHLAB CHIQRISH ("ZERO WASTE") MODELINING ROLI: XORIJIY TAJRIBA VA O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI AMALIY YO'NALISHLAR.....	810
Eshtemirova Anora Norboy qizi	
EKSPORTYO'R KORXONALARDA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI BO'YICHA QO'SHILGAN QIYMAT VA FOYDA SOLIG'INI TO'G'RI HISOBLANISHI TAHLILI VA ISTIQBOLLARI	814
Sobirova Xilola Rustam qizi	
O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATI RIVOJLANISHINING MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI	819
Ikramova Taxmina Latifovna	
YANGI RIVOJLANAYOTGAN BOZORLARIDA HR QAROR QABUL QILISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA IQTISODIY TA'LIMNING ROLI	824
Dilfuza Shokirova	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO BUXGALTERIYA STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	833
Abdiev Mutolib Anvar o'g'li	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	838
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
AKTIVLAR VA MAJBURIYATLARNI MHXS ASOSIDA BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	842
G'anibayev Iloxomjon Shokiraliyevich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN BOG'LIQLIGI	847
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, Turdimuratova Aziza Alisherovna	
AGRAR ISHLAB CHIQRISHNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA "QISHLOQ XO'JALIGI-4.0" VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI" KONSEPSIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	851
Yusupov Muxiddin Soatovich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI GURUHLASH VA BAHOLASH.....	860
Davlyatov Bekzodjon Aslanxojayevich	
TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASINING AHAMIYATI	864
Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	868
Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASSTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	889
Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI	913
Oripov Mirzo Mahmudovich	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
Ибраимова Махсура Уснатдин кизи	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	922
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	



XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH

Tleubergenov Raxat Shahibaevich

Qoraqalpoq davlat universiteti,

«Menejment va iqtisodiyot asoslari» kafedrası dotsenti, i.f.n.

Rakhat67@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmatlar sohasi korxonalari faoliyati boshqaruv jarayonlarining funktsiyonal samaradorligini ichki imkoniyatlardan foydalanish asosida oshirish, professiyonal va sifat jihatdan yuqori xizmat turlarini ko'rsatish orqali soha korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlash hamda resurslarni elektron boshqarish, ta'minot zanjiri boshqaruvi raqamli tizimlarini joriy etish asosida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish borasida ishlab chiqish asosiy maqsad hisoblanadi.

Kalit so'zlar: boshqaruv, samaradorlik, sifat, daromad, bandlik, strategik rejalashtirish, marketing, innovatsiya.

Abstract. In this article, the main goal is to increase the functional efficiency of management processes of service sector enterprises in the world based on the use of internal capabilities, to ensure the competitiveness of industry enterprises by providing professional and high-quality types of services, as well as to develop management mechanisms based on the introduction of digital systems for electronic resource management and supply chain management.

Key words: management, efficiency, quality, income, employment, strategic planning, marketing, innovation.

Аннотация. В данной статье основной целью является повышение функциональной эффективности процессов управления деятельностью предприятий сферы услуг на основе использования внутренних возможностей, обеспечение конкурентоспособности предприятий отрасли за счет предоставления высокопрофессиональных и качественных видов услуг, а также разработка механизмов управления на основе внедрения цифровых систем электронного управления ресурсами и управления цепочками поставок.

Ключевые слова: управление, эффективность, качество, доход, занятость, стратегическое планирование, маркетинг, инновации.

KIRISH

Jahonda xizmatlar sohasi korxonalari faoliyati boshqaruv jarayonlarining funktsiyonal samaradorligini ichki imkoniyatlardan foydalanish asosida oshirish, professiyonal va sifat jihatdan yuqori xizmat turlarini ko'rsatish orqali soha korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlash hamda resurslarni elektron boshqarish, ta'minot zanjiri boshqaruvi raqamli tizimlarini joriy etish asosida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish borasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, bandlikni ta'minlash, aholining daromadi hamda turmush sifatini oshirishning muxim yo'nalishlaridan biri sifatida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Shu boisdan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish» bo'yicha muhim vaziyfalar belgilab berilgan. Bu vaziyfalarining muvaffaqiyatli bajarilishi xizmatlar sohasi korxonalarida boshqaruv salohiyatini aniq baholash orqali xizmatlar sifatni oshirishni ta'minlash, xizmat ko'rsatish korxonalarida risklarni boshqarish va soha korxonalarida raqobatbardoshlikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish kabi chora-tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Hududlar kesimida, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida so'nggi yillarda xizmatlar sohasi dinamikasining sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022–2024-yillar davomida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2,8 baravar, aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2,7 baravar, xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 1,1 baravar, kichik biznes subyektlari ulushi esa 1,5 baravar oshgan. Bu holat hududda sohani kengaytirish, xizmatlar diversifikatsiyasi va biznes muhitini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini tasdiqlaydi.



Shu nuqtai nazardan qaraganda, xizmat ko'rsatish tarmoqlarida boshqaruv salohiyatini oshirish va innovatsion mexanizmlarni takomillashtirish nafaqat iqtisodiy samara, balki ijtimoiy barqarorlik, aholining farovonligini oshirish va hududlarning kompleks rivojlanishini ta'minlovchi hal qiluvchi omillardan biridir. Zamonaviy texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish, xodimlar malakasini oshirish, innovatsion g'oyalarni boshqaruvga joriy etish hamda raqobatbardosh xizmat turlarini rivojlantirish bugungi kunda sohaning asosiy strategik vazifalaridan bo'lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqot aynan shu jarayonlarni ilmiy tahlil qilish, Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida xizmat ko'rsatish sohasida boshqaruv salohiyatini oshirishning innovatsion yo'nalishlarini asoslab berish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilganligi bilan dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasining rivojlanishi va unda boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari so'nggi yillarda xalqaro va milliy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishiga aylangan. A. Gershuny, V. Baumol va D. Bellning ilmiy qarashlariga ko'ra, xizmatlar ulushining ortishi postindustrial jamiyatning bosh belgilaridan biri bo'lib, mehnat mahsuldorligi va innovatsion rivojlanish bilan uzviy bog'liq.

Xizmatlar nazariyasida A. Borens va F. Kotler xizmat sifatini, mijozlar tajribasi va xizmatlarni differensiallashtirish korxonalar uchun asosiy strategik ustunlik ekanini ta'kidlaydi. Innovatsion boshqaruv bo'yicha P. Drucker, J. Schumpeter va M. Porter tadqiqotlari raqamli texnologiyalar va modernizatsiyaning raqobat ustunligi yaratishdagi ahamiyatini asoslab beradi.

O'zbekiston olimlari (U. Uzokov, B. Khodjaev, N. Mamatqulov va boshqalar) xizmatlar sohasining modernizatsiyasi, biznes muhitini yaxshilash va raqamli transformatsiyani milliy jihatdan o'rganib kelmoqda. Qoraqalpog'iston bo'yicha tadqiqotlar esa hududda xizmatlar ulushining ortishi, bandlik va kichik biznesning faolligi bilan bog'liq rivojlanish tendensiyalarini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili xizmatlar sohasini boshqarish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion mexanizmlarni hududiy sharoitlarga moslashtirish bo'yicha amaliy tadqiqotlar yetarli emasligini ko'rsatadi. Bu mavzuning ilmiy dolzarbligini oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda xizmatlar sohasining rivojlanish jarayonini, uning boshqaruv mexanizmlarini va hududiy omillarini ilmiy asosda tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslanib, quyidagi ilmiy-uslubiy tamoyillarni o'z ichiga oladi:

1. Nazariy-metodologik asoslar

Tadqiqotning nazariy bazasini xizmatlar iqtisodiyoti bo'yicha klassik va zamonaviy ilmiy konsepsiyalar (Gershuny, Baumol, Drucker, Porter, Becker, Schultz) hamda O'zbekiston va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Xizmatlar sohasini rivojlantirishga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlar ham metodologik asos sifatida o'rganildi.

2. Umumilmiy tahlil usullari

Mantiqiy tahlil va sintez – nazariy manbalarni tahlil qilish va umumlashtirishda qo'llandi.

Induksiya va deduksiya – xizmatlar sektoridagi tendensiyalarni aniqlashda ishlatildi.

Abstraksiya va modellashtirish – boshqaruv mexanizmlarining nazariy modelini yaratish uchun qo'llanildi.

3. Empirik tadqiqot usullari

Statistik tahlil – Qoraqalpog'iston Respublikasi xizmatlar sektoriga oid rasmiy statistik ma'lumotlar asosida o'sish dinamikasi baholandi.

Taqqoslamali tahlil – hududlar va davlatlar kesimida xizmatlar sohasining rivojlanish ko'rsatkichlari solishtirildi.

Metodologiya zamonaviy boshqaruv, raqamli iqtisodiyot va hududiy rivojlanish yondashuvlarini birlashtirgan holda, xizmatlar sohasini kompleks baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida xizmatlar sohasining rivojlanish tendensiyalari, tarkibiy o'zgarishlari va boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari chuqur o'rganildi. Olingan natijalar ushbu sohada iqtisodiy faollikning sezilarli darajada ortib borayotganini va hududiy rivojlanish uchun muhim omilga aylanganini ko'rsatadi.

2025-yil 27-fevraldagi «Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi PQ-78-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori,



2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vaziyfalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruv salohiyati asosan quyidagilarga bog‘liq:

- Inson resurslari sifatini oshirish (kadrlar malakasi);
- Innovatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy qilish;
- Sifat menejmenti va standartlar;
- Iqtisodiy-tashkiliy mexanizmlar (strategik rejalashtirish, marketing, mijozlar bilan ishlash).

Inson resurslari sifatini oshirish (kadrlar malakasi) - inson kapitali, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari, motivatsiya tizimi (ish haqi, bonus, rag‘batlantirish).

Innovatsiyalar va raqamli transformatsiya:

- CRM tizimlarini joriy etish (mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish);
- Onlayn xizmatlar, mobil ilovalar va chat-botlardan foydalanish;
- Elektron hukumat va davlat xizmatlarini raqamlashtirish.

Sifat menejmenti:

- ISO 9001 kabi xalqaro standartlarni joriy qilish;
- Xizmat ko‘rsatishda “Customer Experience” (mijoz tajribasi) modelini qo‘llash.

Tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar:

- Xizmat turlarini diversifikatsiya qilish (turizm, savdo, bank, tibbiy xizmat va h.k.);
- Raqobat muhitini yaratish;
- Davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish.

Hududlarda xizmatlar sohasi rivojlanishini baholash, o‘zining tarkibi bo‘yicha savdo, transport, tashish va saqlash, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, axborot va aloqa, sog‘liqni saqlash hamda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Xizmatlar sohasi faoliyatining pirovard natijasi ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi. Shu sababli, xizmatlar sohasining iqtisodiyotda, xususan, hududlar rivojlanishidagi rolini aniqlashda aholiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi o‘lchov indikatoridan foydalanish qabul qilingan.

1-jadval. Qoraqalpog‘iston Respublikada xizmatlar sohasining asosiy ko‘satkichlari bo‘yicha ma‘lumot

№	Ko‘rsatkichlar	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2024-2022 yilga nisbatan o‘sishi (baravar)
1.	Xizmatlar hajmi mlrd. so‘m	10 421,9	12 876,6	28 820,8	2,8
2.	Aholi jon boshiga xizmatlari hajmi ming so‘m	5 310,8	6 472,6	14 294,6	2,7
3.	Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, %	62,7	65,8	70,3	1,1
4.	Xizmatlar sohasida kichik biznes va tadbirkorlik, %	49,9	51,4	73,6	1,5

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2022–2024 yillar davomida Respublika bo‘yicha xizmatlar hajmi 2,8 baravar, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi 2,7 baravar, xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,1 baravar, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari soni esa 1,5 baravar oshgan.

Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirishning eng muhim vositalaridan biri bu ishlab chiqarishni boshqaruv tizimi. Bu xizmat ko‘rsatishni boshqarish va nazorat qilish jarayonlarini avtomatlashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish va muvofiqlashtirishni yaxshilash, shuningdek mahsulot sifatini oshirish va xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Yana bir muhim vosita-bu sifat boshqaruvi tizimidan foydalanish. Bu xizmat ko‘rsatish tsiklining barcha bosqichlarida sifat standartlarini o‘rnatish va ularning bajarilishini nazorat qilish imkonini beradi, bu mahsulot sifatini yaxshilashga va mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan logistikani avtomatlashtirish uchun foydalanish mumkin. Bu o‘z o‘rnida mahsulotni etkazib berish vaqtini qisqartirish, zaxiralarni nazorat qilishni yaxshilash va logistika xarajatlarini kamaytirish imkonini yaratadi.

Xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida boshqaruv salohiyatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy maqsadi - bu iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, jamiyatning umumiy farovonligini



ta'minlashdir. Shu sababli, xizmat ko'rsatish sohasida boshqaruvni takomillashtirishning har bir jihatida mamlakatning iqtisodiy barqarorligini saqlash va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqsadga erishish uchun xizmat ko'rsatish tashkilotlarida zamonaviy boshqaruv metodlarini joriy etish, xodimlar salohiyatini oshirish va yangi texnologiyalardan foydalanish zarur. Xizmat ko'rsatish sohasidagi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning eng muhim yo'llaridan biri - bu raqamli texnologiyalarni keng joriy etishdir. Hozirgi kunda dunyo miqyosida raqamli transformatsiya xizmat ko'rsatish sohasini yangilashda asosiy omilga aylanmoqda.

Xizmat ko'rsatish tashkilotlari, masalan, banklar, do'konlar, restoranlar va boshqa xizmatlar sohasidagi tashkilotlar o'z mijozlari bilan muloqot qilishda va xizmatlarni taqdim etishda zamonaviy texnologiyalarni faol qo'llayapti. Bu esa mijozlar bilan yanada yaqin aloqalar o'rnatishga, xizmatlar sifatini yaxshilashga va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida boshqaruvning takomillashuvi bilan birga, inson resurslarini boshqarish metodlarini ham innovatsiyalash zarur. Xodimlarning malakasini oshirish, ularni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish, rahbarlarning boshqaruv uslublarini yangilash tashkilotlarda samarali boshqaruvni ta'minlashga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari xizmatlar sohasining hududiy iqtisodiyotda tobora muhim o'rin egallab borayotganini ko'rsatdi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion boshqaruv yondashuvlari va inson kapitalining rivojlanishi ushbu sohaning asosiy rivojlanish drayverlari sifatida shakllanmoqda. Xizmatlar tarmog'ida sifati, hududiy taqsimotdagi nomutanosibliklar va infratuzilma bilan bog'liq cheklovlar hali ham mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish barqaror rivojlanish uchun zarurdir.

Takliflar:

1. Xizmatlar sifatini oshirish
ISO 9001 kabi sifat standartlarini joriy etish.
Xizmat jarayonlarini qayta qurish (BPR).
Mijoz tajribasini boshqarish tizimini yo'lga qo'yish.
2. Raqamlashtirishni jadallashtirish
Hududiy "raqamli xizmatlar platformasi"ni yaratish.
Korxonalarini CRM, ERP va elektron hujjatlashtirish tizimlari bilan jihozlash.
Internet infratuzilmasini modernizatsiya qilish.
3. Inson kapitalini rivojlantirish
Maxsus o'quv markazlari va qisqa kurslarni kengaytirish.
Xizmat ko'rsatish madaniyati bo'yicha amaliy treninglar tashkil etish.
Zamonaviy motivatsiya va HR texnologiyalarini joriy qilish.
4. Hududiy infratuzilmani yaxshilash
Transport, logistika va turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish.
Xizmatlar klasterlarini shakllantirish.
Investitsiya muhitini yaxshilash va investorlar uchun qulay sharoit yaratish.
5. Innovatsion xizmatlarni kengaytirish
Elektron tijorat, masofaviy xizmatlar va IT-servislarni rivojlantirish.
Turizm, ta'lim, tibbiyotda innovatsion paketlar yaratish.
Startaplar va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash.
6. Qoraqalpog'iston uchun maxsus takliflar
Transport-logistika, turizm, savdo, IT kabi yo'nalishlarni birlashtirgan xizmatlar klasterini shakllantirish.
Nukus va yirik tumanlarda "raqamli xizmatlar markazlari"ni tashkil etish.
Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq imtiyozlari va kredit mexanizmlarini soddalashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-avgustdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur'atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-son Farmoni. <https://president.uz/uz/lists/view/5481>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-fevraldagi "Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-66-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6797659>
3. Yerejepova B.A. Qoraqalpog'iston Respublikasida maishiy xizmatlar sifatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. T.: 2025. 129 b.
4. Qoraqalpog'iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. Toshkent IFMR, 2013.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>